

AMALIY MASHULOTLARDA JAMOAVIY IJROCHILIK (ANSAMBL IJROCHILIGI MISOLIDA)

Tursunova Nazira Rahmatullayevna

*Respublika musiqa va san'at kolleji "Xalq cholg'ulari ijrochiligi"
kafedrası bosh o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ansambl ijrochiligi bo'yicha fikr yuritiladi. Bundan tashqari ta'lim muassasalarining, ijrochilik amaliyotida o'ziga mutanosib va nomdosh cholulardan guruhlar tuzish tendensiyasi, ansambli ijrochilarining ijodiy yo'li hamda faoliyati yoritildi.*

Kalit so'zlari: *san'at, musiqa, cholg'u, ansambl, sozanda, mahorat, dastur, ijrochilik, eksperimental, laboratoriya.*

В данной статье речь пойдет об ансамблевом исполнительстве. Кроме того, подробно освещена тенденция учебных заведений к созданию коллективов из своих и известных в исполнительской практике исполнителей, творческий путь и деятельность артистов исполнительницей на народных инструментах.

Ключевые слова: *искусство, музыка, инструмент, ансамбль, музыкант, мастерство, программа, исполнение, экспериментал, лаборатория.*

“Ansambl” iborasi ijodiyotning barcha sohasiga, ayniqsa, san'at yo'nalishiga xosdir. Musiqada “ansambl” iborasini qo'llash azaldan keng ommalashgan.

“Ansambl” fransuzcha “ensemble”¹ so'zidan olingan bo'lib, “birlik”, “uyunlik”, “ohangdoshlik” ma'nolarini bildiradi. Musiqa san'atida ansambl ko'p ma'noga egadir. Jumladan: a) muayyan musiqa asarlarini bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etish; b) sozanda va xonandalarning kichikroq guruhi va ularga mo'ljallangan asar; c) yirik janrlar tarkibida uchraydigan ansambllar: opera, oratoriya, kantata janrlarida kichik ansambllar keng qo'llaniladi. Ijrochilar soniga qarab, ular duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, septet yoki oktet, deb nomlanadi.

Tarixdan ma'lumki, ijrochilikda qo'shiqqa, raqsga cholg'ularda jo'r bolish xalqimizning ommaviy bayram va marosimlarida keng qo'llanilgan. XX asrning o'rtalariga kelib, cholg'ulardan turli xildagi guruhlar tashkil qilinib, shuningdek, qo'shiqlarni ham jamoa bo'lib ijro etishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Xalq ozaki ijodiyoti tarmoidan tortib, to professional san'at yo'nalishlarida ijod qilib kelayotgan san'at ahli orasida bu jarayon keng qo'llanila boshlandi. Ijrochilik amaliyotida turli tarkibdagi xalq cholg'u va raqs ansambllari faoliyati keng ommalashdi. Musiqa madaniyati rivojida vokal-cholg'u ansambllari, alohida cholg'u hamda vokal cholg'u ansambllari tuzildi. Ayniqsa, turli tarkibdagi vokal (bir ovozli, ko'p ovozli) ansambllar yoshlar faoliyatida keng ommalashayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz.

¹ O'zbekiston milliy entsiklopediyasi T №1. T., 2000. B.356.

Ta'lim muassasalarining, ijrochilik amaliyotida o'ziga mutanosib va nomdosh cholg'ulardan guruhlar tuzish tendentsiyasi avj ola boshladi. Dutorchilar ansambli, changchilar ansambli, doyrachilar ansambli, hattoki, 1960-yilda Sulaymon Taxalov boshchiligida 12 ta cholg'uchilardan iborat udchilar ansambli yoki ustoz sozanda Turun Alimatov sinfida tanburchilar ansambli ham ijrochilikning yangi-yangi qirralarini namoyish etishga muvassar bo'ldi. O'zbekiston davlat konservatoriyasida turli tarkibdagi ansambllar tashkil etilib, ko'p yillardan beri o'z faoliyatini munosib tarzda olib bormoqdalar. Buning yorqin namoyandalari, o'z davrida mashhur bo'lgan professor A.Odilov rahbarligidagi changchilar ansambli, professor M.Toshmuhamedov rahbarligidagi g'jjakchilar ansambli, dotsent G'Ergashev rahbarligidagi afg'on rubobchilar ansambli, professor Feruza Abdurahimova rahbarligida tashkil etilgan "Sudg'iyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri faoliyati alohida tahsinga loyiq.

"Changchilar ansambli" (1968) Toshkent davlat konservatoriyasida (hozirda-O'zbekiston davlat konservatoriyasi) O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, mohir sozanda, professor A.Odilov tashabbusi bilan tashkil qilingan. Ansambl ijro dasturidan o'zbek mumtoz musiqasi, bastakorlar ijodi, qardosh xalqlar hamda jahon klassik kompozitorlarining durdona asarlari keng o'rin olgan. Har bir janr yoki uslubga xos asarlar changchilar ansambli talqinida o'ziga xos jozibaga ega bo'lgan. Ansamblda chang (pikkolo) bilan birga alt va bas changlarining o'rin olganligi umumiy talqin tarannum jozibasida rang-baranglikni ta'minlagan. Musiqiy asarlarni mohirlik bilan ijro etib, har bir chiqishlarida tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb eta olgan. Shu bilan birga, bir qator rag'batlarga ham sazovor bo'lgan. Ansamblning konsert gastrol safarlari XX asrning 70-yillaridan boshlangan. 1970-yili Moskvada bolalar va o'smirlarning musiqiy-estetik tarbiyasi bo'yicha o'tkazilgan Xalqaro anjumanda qatnashib, diplom bilan taqdirlangan. Ansambl tashkil topgandan buyon Mustaqil davlatlar hamdo'stligi hamda xorijiy davlatlarda, jumladan, Ozarbayjon, Tojikiston, Ukraina, Vyetnam davlatlarida bir necha ijodiy konsert safarlarida bo'lib, o'zbek cholg'u ijrochilik san'atini yuqori saviyada namoyish qilgan.

Buyuk mutafakkir shoir Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan unga o'ziga xos tuhfa sifatida bu sanaga tayyorgarlik arafasida Toshkent davlat konservatoriyasining shu yillardagi rektori X.R.Rahimov taklifi bilan xalq cholg'ulari eksperimental laboratoriyasida ud cholg'usini qayta tiklash va udchilar ansamblini tuzish ishlari amalga oshirildi. 1968-yilning mart-avgust oylarida 12 ta ud yasaldi va konservatoriyaning xalq cholg'ulari fakulteti talabalaridan udchilar ansambli tuzildi. Ansamblga iqtidorli sozanda-ijrochi, ko'p yillar davomida Toshkent davlat konservatoriyasida yoshlarga ta'lim bergan ustoz sozanda, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor Sulaymon Taxalov rahbarlik qilib, an'anaviy, bastakorlik ijodi namunalari ijro dasturi tayyorladi.

Konservatoriyaning "Xalq cholulari" kafedrasida professori M.Toshmuhamedov tashabbusi bilan "Sayqal" ijrochilar kamer orkestri tuzildi. Jamoaning maqsadi kamonli cholg'ularning (g'ijjak, g'ijjak alt, qobuz bas, qobuz kontrabas) keng ijro

imkoniyatlarini tinglovchilar e'tiboriga havola etish; g'ijjaklar oilasiga mansub chog'lularni birikkan hoida milliy musiqamizni ko'p ovozlik tarzda targ'ibot etish; mumtoz musiqalarimiz, o'zbek hamda jahon kompozitorlarining asarlarini keng miqyosda ijro etishdan iborat bo'ldi. 1994-yildan "G'ijjak musiqasi festivali" (hozirgacha 4 ta) o'tkazildi. Festival doirasida yosh g'ijjakchilar tanlovining o'tkazilishi, shuningdek, mohir g'ijjakchi-sozandalardan O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi B.Rasulov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Q.Komilov, Sh.Yo'ldoshev, Respublika tanlovlari laureatlari M.Azizov, Q.Nazirov, O'.Qodirovlarning qatnashib, o'z san'atlarini namoyish etishlari alohida e'tiborga loyiqdir.

O'zbekiston davlat konservatoriyas "Orkestr dirijyorligi" kafedrasida professori F.Abdurahimova tashabbusi bilan tashkil etilgan (1991 y.) "Sudg'iyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri, ansambl ijrochiligini keng tarib qilib, katta natijalarga erishdi hamda Xalqaro miqyosda o'z o'rniga ega bo'ldi. Ispaniyada bo'lib o'tgan XXX ko'p ovozli mizrobli cholg'u ansambl va orkestrlarining Xalqaro festivali laureati "Sudiyona" xalq cholg'ulari kamer orkestri tashabbusi bilan Respublikamiz mustaqilligining 10 yilligiga baishlab o'tkazilgan "Toshkent bahori-2001" I Xalqaro ansambl va orkestrlar festivali O'zbekiston san'at ahli uchun katta ahamiyat kasb etdi. Festivalda Maddi Oyenar va Basklar mamlakatining sozandalari (Fransiya), Xalqaro tanlovlar laureati, Qozon konservatoriyasi tatar musiqasi orkestri (Rossiya), "Angklung" ansambli (Indoneziya), Tattimbet nomidagi Qozoq milliy cholg'ulari Akademik orkestri, Qoramoldo O'rozov nomidagi xizmat ko'rsatgan qiriz milliy cholg'ulari akademik orkestri hamda respublikamizda faoliyat yuritayotgan bir necha ansambl va orkestrlar qatnashdilar. Festivalda har bir jamoaning chiqishi tinglovchilarda katta taassurot qoldirdi hamda o'zbek xalq cholg'ulari ko'p ovozli ansambl va orkestr ijrochiligining mavqeyi yuqori pog'nalarda ekanligini yana bir bora namoyish etdi.

Yirik tarkibdagi yoki 10 dan ortiq cholg'ulardan iborat ansamblar o'z davriga xos va dolzarb bo'lgan ijro mahorati hamda saviyasining ommaviy shaklini namoyish etdi. Lekin ansambl ijrochiligi amaliyotida oz sonli (ikki, uch, to'rt va h.k.) guruhlar ham mavjud bo'lib, ularning har doim kamtarona, 2-3 yo'nalishga xos ravishda faoliyat olib borishlari rasm bo'lgan. Jumladan: a) xonaki (kamer) konsert faoliyati; b) mahoratni namoyish etish (o'quv jarayoni, turli tanlov va festivallar, tarbiyaviy saviya va h.k.); c) turli va nufuzli anjumanlarni musiqiy bezash.

Kichik kamer ansamblarining ixchamligi, kamxarajatliligi va shu bilan birga, mohir sozandalarni saralash imkoniyatining mavjudligi-zamonaviy jarayonda ularga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga turtki bo'ldi. Respublikamizda torli kvartet, damli triolarga bo'lgan e'tibor oshganligi ham buning yorqin misolidir.

Darhaqiqat, jahon musiqachilarining ijrochilik amaliyoti doimiy o'sish, yangilik izlash, zamonga moslashish va rivojlantirish tamoyiliga asoslanib boradi. Cholg'u ijrochiligi amaliyoti rivoji sozandalarning mahoratini oshirish, turli xalqlar

madaniyatini uyg'unlashtirish va kichik ansambllar bilan katta-katta tadbirlarni amalga oshirish uslubiga moslashib boradi. Ushbu uslubni yoshlar orasida keng ommalashtirish muhim ahamiyatga egadir. Yakka ijrochilik mahoratining o'sishi, jamoa bo'lib ijro etish ko'nikmalarini hosil qilishda, jahon xalqlari musiqa madaniyati va san'atini yaxshi tushunib yetish va ijro etishda o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu jarayonni rivojlantirish uchun, o'zbek xalq chog'lularining keng imkoniyatlarini namoyish etish maqsadida O'zbekiston davlat konservatoriyasi o'qituvchilari muayyan taklif bilan chiqdilar. Konservatoriyaning "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasida "Registon" ansambli (2005) dotsent Zulxorbek Turapov va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Komiljon Shermatov tashabbusi bilan tashkil etildi. Ansambl tashkilotchilarining asosiy maqsadlari-o'zbek mumtoz musiqasi, bastakorlar ijodi, zamonaviy musiqa hamda jahon xalqlari kuylarini ijro etish bilan birga, dutor bas, ud, chang, qonun, g'ijjak hamda doyra cholg'ularining ijrochilik imkoniyatlarini ko'rsatish, umuman olganda xalq cholg'ularini targ'ib qilish bilan birga, cholg'ularning bir-biri bilan uyg'unlashuvi imkoniyatlarini namoyish etishdan iboratdir. Guruh qisqa vaqt ichida ijodiy samaradorligini namoyon etishga va Xalqaro miqyosda aloqalarni tiklashga sazovar bo'ldi. 2005-yil "Registon" deb nomlangan dastlabki CD albomi chiqarildi. "Registon" guruhi bir necha Xalqaro hamda Respublika miqyosidagi tadbirlarda qatnashdi, jumladan:

2005-y. - "Sharq taronalari" Xalqaro festivali doirasida o'tkazilgan "O'zbek fotografiyasining 125 yilligi" ko'rgazmasining taqdimotida (Samarqand);

2005-y. - "Sharq taronalari" Xalqaro festivali doirasida o'tkazilgan "OSWMF 2005" I Xalqaro musiqa yarmarkasida (Samarqand);

2006-y. - O'zbekistonning Belgiyadagi elchixonasi tomonidan "O'zbek fotografiyasining 125 yilligi"ga baishlab o'tkazilgan Xalqaro ko'rgazmasida (Bryussell);

2006-y. - Gollandiyada o'tkazilgan Xalqaro festivalda;

2006-y. - "HOLLEN-FAHRT, WIENER MOZARTJAHR 2006" Xalqaro festivalida (Vena);

2006-y. - "Omnibus Laboratorium" Markaziy Osiyo yosh kompozitorlari uchun "MASTER KLASS"da (Toshkent);

2006-y. - Amerika Qo'shma Shtatlari musiqa ijrochisi, kompozitor Adam Klipple bilan hamkorlikdagi "ADAM KLIPPLE" (USA) and "REGISTAN" group Xalqaro loyihasida (Toshkent);

2007-y. - "BUYUK IPAK YO'LI: kecha, bugun, ertaga" Xalqaro forum-festivalida (Toshkent);

2008-y. - "Dala Duman" Xalqaro festivalida (Qozoiston);

2008-y. - Xalqaro musiqa festivallarida (Latviya, Litva, Misr Arab Respublikasi);

2009-y. - "Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab musiqiy sayohat" Xalqaro festivalida (Yaponiya);

2010-у. - “EXPO-2010“ Xalqaro ko‘rgazmasida (Xitoy Xalq Respublikasi);

2011-у. - Xitoy Xalq Respublikasida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasining madaniyati kunlarida;

2011-у. - O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga baishlangan bayram tadbirlarida (AQSH);

2017-у. - “Sharq Taronalari” Xalqaro musiqa festivalida (Samarqand);

2018-у. - Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi “O‘zbekiston-Litva” do‘stlik jamiyati bilan hamkorlikda Latviya, Litva va Estoniya davlatlarida o‘tkazilgan Xalqaro milliy madaniyatlar festivali hamda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 27 yilligiga baishlangan bayram tadbirlarida;

2018-у. - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy davlatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan Latviya Respublikasining 100 yilligi hamda O‘zbekiston-Latviya do‘stlik jamiyatining 20 yilligiga baishlangan bayram tadbirida.

Har bir davr o‘z zamonasi muhitiga sozlanadi. Eng dolzarb jarayonlar ijodiyotning maqsad va vazifalari bo‘lib kelgan. Musiqa san‘atimizning ayni paytdagi rivojida ansambl ijrochiligiga bo‘lgan talab va ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Yoshlarning kamoloti uchun xizmat qiladigan bunday ijodiy ishlarni ro‘yobga chiqarish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jabborov A. “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari”.
- Toshkent. 2004.
2. Ливиев А. Исполнительская культура народных музыкальных инструментов в Республике Узбекистан (устная и письменная традиция).
- Ташкент. 2010.
3. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”.
- Toshkent. 1995.
4. Lutfullayev A. Xalq cholulari ijrochiligi: tarix va zamonaviylik.
- Toshkent, “Musiqa”. 2017.
5. “Registon” ansambli badiiy rahbari professor Z.Turapov bilan ijodiy suhbat. 4.01.2024 у.